

**TA'LIMDA INNOVATSIYALAR VA YOSH AVLONDING ULARGA
MOSLASHUVI**

Nazarova Nilufar Jo'rayevna

Toshkent davlat transport universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti (PhD)

Zamonova Farangiz Qo'lqosh qizi

TDTrU Sotsiologiya yo`nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur ishda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan innovatsion yondashuvlar va ularning yosh avlodga ta'siri tahlil qilingan. Innovatsiyalarning ta'lim sifati va samaradorligini oshirishdagi roli, shuningdek, yoshlarning yangi texnologiyalar va o'quv metodlariga qanday moslashayotgani yoritib berilgan. Ishda zamonaviy o'quv vositalari, raqamli platformalar, interaktiv metodlar hamda ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning afzalliklari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, yosh avlodning innovatsion o'zgarishlarga nisbatan qiziqishi, tayyorgarligi va moslashuv darajasi ilmiy asosda tahlil etilgan.

Аннотация: В данной работе анализируются инновационные подходы, реализуемые в системе образования, и их влияние на молодое поколение. Освещена роль инноваций в повышении качества и эффективности образования, а также то, как молодежь адаптируется к новым технологиям и методам обучения. В работе показаны современные учебные средства, цифровые платформы, интерактивные методы и преимущества их интеграции в образовательный процесс. Также на научной основе проанализированы интерес, готовность и уровень адаптации молодого поколения к инновационным изменениям.

Abstract: This work analyzes the innovative approaches being implemented in the education system and their impact on the younger generation. The role of innovations in improving the quality and effectiveness of education, as well as how young people adapt to new technologies and teaching methods, is highlighted. The work shows the advantages of modern teaching aids, digital platforms, interactive methods, and their integration into the educational process. Also, the level of interest, preparedness, and adaptation of the younger generation to innovative changes was analyzed on a scientific basis.

Kalit so'zlar: Ta'lim muassasalari, innovatsiya, innovatsion jarayonlar, texnologik kompetensiya, ta'lim-tarbiya, raqamli texnologiyalar, interaktiv o'quv uslublar.

Ключевые слова: Образовательные учреждения, инновации, инновационные процессы, технологическая компетенция, образование, цифровые технологии, интерактивные методы обучения.

Keywords: Educational institutions, innovation, innovative processes, technological competence, education, digital technologies, interactive teaching methods.

Bilamizki barcha ta’lim muassasalarida o‘z faoliyatiga innovatsion ta’lim elementlarini kiritadi, natijada esa tezroq rivojlanish ehtiyoji va pedagoglarning buni tezda amalga oshira olmasligi o‘rtasida turli xil jiddiy ziddiyatlar yuzaga keladi. Maktab ta’limini zamonaviy nuqtai nazardan innovatsion rivojlantirish, yuzaki qaraganda ancha oson tuyuladi, biroq bu ancha murakkab ish bo‘lib bunda “yangi”, “yangilik”, “innovatsiya”, “innovatsion jarayonlar”, “innovatsion ta’lim”, “innovatsion texnologiyalar” kabi tushunchalarni zamonaviy nuqtai nazardan puxta o‘zlashtirish va ularga tayanish zarur bo‘ladi. Hozirgi kunga kelib innavatsiya atamasiga bir nechta ta’riflar mavjud bo‘lib bulardan: “Innovatsion texnologiyalar – bu o‘qituvchi va o‘quvchilarining o‘zaro bir biriga ta’sirlashishining prinsipial jihatdan yangi uslub va metodlari bo‘lib, ular pedagogik faoliyatda samarali natijalarga erishishni ta’minlaydi”.

Innovatsion yondashuv asosida o‘quvchilarni texnologik kompetensiyasini shakllantirish uchun, eng avvalo, pedagogik innovatsiyalar to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lishi kerak bo‘ladi. Pedagogik innovatsion jarayonlarda G‘arb davlatlarida o‘tgan asrning 50 yillari oxirlaridan boshlab, mustaqillik davrda O‘zbekistonda esa, keyingi 10 yillikda olimlar tomonidan chuqur o‘rganila boshlangan. So‘nggi yillarda esa mamlakatimiz olimlari tomonidan innovatsiya, innovatsion tafakkur, innovatsion faoliyat, innovatsion bozor, pedagogik innovatsiyalar haqida ilmiy tadqiqotlar tahlillar olib borilmoqda. Hozirgi kunda ta’lim tizimidagi innovatsiyalar dolzarb muammo bolib kelmoqda. Biroq ta’limda inson mavjudligini belgilab beruvchi asosiy sohalardan biri hisoblanadi. Ta’limning zamonaviy tizimida jamiyatning asosiy talablaridan biri bo‘lib har tomonlama rivojlangan, murakkab vaziyatlarda bo‘layotgan nostandart echimlarni topishga, ijodiy fikrlay oladigan va butun hayoti davomida uzlusiz ta’lim olishga qodir shaxsni tarbiyalab voyaga etkazish, shakllantirishdan iborat hisoblanadi. Ilm fanga qaratilayotgan e’tibor shiddat bilan odimlayotgan bir vaqtida dars jarayoniga o‘lchov vositalardan foydalanish ularni optimallashtirish uchun muhum hisoblanadi.

Texnologik kompetensiyani shakllantirishning maqsadi bu – turli yo‘nalishlarda halol, ijodiy mehnatga tayyorlikni shakllantirish, shaxsnинг salomatligini mustahkamlash, har tomonlama rivojlanishiga yordam berishdan iboratdir. Ta’lim-tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o‘tishi bilan kengayib taraqqiy etib borish natijasida uning shakl, usul va vositalari ham takomillashib borayotganini

ko'rmoqdamiz. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari shu faoliyatdan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, ya'ni texnologiyalarga aylanib bormoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Aynan shu kabi ta'lim-tarbiya sohasida ham so'nggi yillarda ta'lim texnologiyalari faol tarzda amal qila boshladi. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayoni katta avlod tomonidan o'z bilim va tajribalarini o'sib kelayotgan avlodga o'rgatishdan iborat bo'lib, bu jarayonda, asosan, inson hayoti uchun zarur axborotlarni avloddan- avlodga uzatish amalga oshiriladi. Inson hayoti axborotlar bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Pedagogik kuzatishlar va amaliy tajribalar ko'rsatadiki, "Texnologiya" fanini o'qitishda o'qitishning innovatsion metodlarini, jumladan, STEAM – ta'lim yondashuvini qo'llash, zamonaviy dasturlarni joriy etishga bugungi kunda nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyoda katta ehtiyoj sezilmoqda. Chunki jamiyat taraqqiyotining hozirgi davrida o'quvchilarni yoshligidanoq ishlab chiqarish, sanoat, xizmat ko'rsatish sohalari talablari asosida texnologik tayyorlash dolzarb masalaga, ehtiyojga aylanib kelmoqda. Biroq maktab o'quvchilarida texnologik kompetensiyalarini shakllanganligi darajasi bugungi davr talablariga (texnologik savodxonlikning yuqori darajasi, kundalik muammolarni mustaqil hal etish qobiliyati, tez o'zgarayotgan ijtimoiy muhitga qiyalmasdan tez moslasha olish tarablariga) etarlicha mos kelayotgani yo'q. Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida maktab o'quvchilarida texnologik kompetensiyalarini shakllantirishning asosiy maqsadlari O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi buyurtmasini bajarishga qaratilgan ta'lim jarayonida birlashadi, maktab o'quvchilarida texnologik kompetensiyalarini shakllantirishning maqsad va vazifalari davlat dasturlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan belgilanadi. Agar umumiyligi o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining texnologik komponentensiyalarini egallashga tayyorgarligini, ya'ni ularning o'zgartirish faoliyatiga bevosita jalb etilganligi tahlil etilsa, ularda uning mohiyati, tuzilishi va texnologik komponentensiyalarini shakllantirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar haqida aniq tasavvurlarning mavjud emasligini kuzatish mumkin. Bu esa texnologik bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha o'quvchilarga qo'yilgan talablar va ularda innovatsion yondashuv asosida texnologik komponentensiyalarini shakllantirishga imkon beruvchi o'qitish modelining mavjud emasligi vas hu bilan birga o'rtasida ziddiyatli muammoni yechishning dolzarbligini ko'rsatadi. Oqilona o'qitish modeli tuziladi, ular didaktik vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi va o'qitishmetodlari, tashkil etish shakllari, vositalari, pedagogik usullar to'plamidan iborat. Ko'rsatiladigan qurollar va pedagogik texnik o'quv materiallariga, o'quvchilarning shaxsiy qobiliyati va rivojlanganlik darajasiga uyg'un bo'lishi kerak bo'ladi. Shuningdek, ta'lim muassasasining moddiy bazasi hisobga olinishi lozim. "Dasturlarda mutaxasislik yo'nalishlarga qarab, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga soat ajratilgan bo'lsa, ba'zi yo'nalishlar uchun ma'ruza, amaliy va laboratoriya ma'shg'ulatlariga soatlar ajratilgan. Kursni nomidan kelib

chiqan holda fan tajriba kursi bo‘lganligi uchun ma’ruza, amaliy va laboratotiya ma’shg‘otlari bo‘lgani maqsadga muvofiq bo’ladi. Biroq o‘qitishning informasion texnologiyasini rivojlanishi ba’zi oliy o‘quv yurtlarida ma’ruza va laboratoriya ma’shg‘ulotlar uchun, ba’zilari esa ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar uchun soat berilgan. Shu sababli, murakab materialni talabalarga yetkazishda o‘qitishning zamonaviy texnologiyalaridan, masalan informasion va texnologiyalaridan foydalanishi kerak.”

Respublikamiz Prezidenti **Sh. M. Mirziyoyev**ning fikricha, “Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish eng muhim vazifamizdir deb ta’kidlaydi. Innovatsiya bo‘lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish hech qachon bo‘lmaydi. Ushbu sohadagi o‘zgarishlarni xalqimizga keng targ‘ib qilmasak, odamlarda ko‘nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fan-texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo‘lilmaymiz. Shu sababli ushbu faoliyatni zamon talablari darajasida rivojlantirish yangi vazirlik, qolaversa, ushbu markazning asosiy vazifasi bo‘lishi kerak.”, “Biz uchun asosiy vazifa – ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan uzlusiz yangilab borish, doimiy ravishda ichki imkoniyat va zaxiralarni izlab topish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni izchil davom ettirishdan iborat bo‘lishi zarur. Ayni shunday yangicha qarash va harakatlar butun faoliyatimizning negizini tashkil etishi shart.” deb ko’rsatadilar. O‘qitish uslubiyatining boshqa turlari esa bir qancha olimlar tomonidan ishlab chiqilgan falsafiy-mantiqiy modellar asosida, masalan, **Suqrot** uslubida, muloqot usulida yoki koorporativ usulda tashkil qilingan. Undan so‘ng o‘qitishning ta’lim berish modellari asosida tashkil etish keng miqyosda amalga oshirila boshlandi. Bunda o‘quvchi-talabalarning ma’lum bir soha yoki fandan bilim olishlari maxsus usullar, modellar, ta’lim standartlari yoki strategiyalar asosida amalga oshirilar edi. Ba’zi bir modellarda o‘qituvchi dominant rolda bo‘lib, barcha ta’lim berish vazifalarini o‘zi hal qilar, boshqalarida esa talabalarga to‘la erkinlik berilib, ular demokratik tamoyillar asosida o‘qitilar, yana boshqa birlarida esa talaba va o‘qituvchi orasida tenglik hamda ijodiy fikr almashinish jarayoni amalga oshirilib, o‘zaro muloqot vositasida interfaol ta’lim jarayoni amalga oshirilar edi. Yangilik kiritishning sotsial-psixologik aspekti amerikalik innovatik **E.Rodgers** tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifa (tip)lari tasnifini, uning yangilikka bo‘lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi. Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. **A.I.Prigojin** innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg‘un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o‘zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyati hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim tizimi innovatsion yondashuvlarni talab qilmoqda. Raqamli texnologiyalar, interaktiv o‘quv uslublari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar yosh

avlod uchun nafaqat bilim olish, balki mustaqil fikrlash, kreativ yondashuv va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini bermoqda. Yoshlar bu o‘zgarishlarga tez moslashayotgan bo‘lsa-da, bu jarayonda ularni qo‘llab-quvvatlash, motivatsiyasini oshirish va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishga o‘rgatish muhimdir. Ta’limda innovatsiyalarni joriy etish – kelajak avlodni raqobatbardosh, bilimli va tashabbuskor etib voyaga yetkazishning asosiy omillaridan biridir.

Adabiyotlar:

1. Golish L.V. Ta’lim shakllari: mazmun, tanlash va amalga oshirish. T-2002
2. Zaripov L.R. Mehnat ta’limi jarayonida individual yondashuv asosida o‘quvchilarni intellektual rivojlantirish // “Ta’lim tizimidagi hamkorlik: ustuvor yo‘nalish va dolzarb vazifalar” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Ma’ruza tezislari to‘plami.227-229b 16.02.2013 yil. T.D.I.U
3. To‘rayev.M.,Karimova.M. Analysis of the Methodology of Introduction Into the Educational Process of Modern Technical Measuring Equipment Used in Production, as Well as Caliper Nutrometry and Measurement Methods.Vol. 11 (2021)Published November 25, 2021 European Journal of Life Safety and Stability ISSN 2660-9630 (EJLSS)
4. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. 2020 yil.
5. Инновационное развитие: Экономика, интеллектуальные ресурсы, управление знаниями.” Под редакцией Б.
6. Мильнера, ИНФРА - М, 2010. 3. Nishonova Z.T. Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent, 2003y.
7. Oliy pedagogik o‘quv yurtlarining o‘quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishning ilmiy asoslari. Respublika ilmiy-metodik konferentsiyasining materiallari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2000. 111 b.) – 176-179 b